


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TALIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**60730300 – *Qurilish muhandisligi bakalavriat ta’lim***  
***yo‘nalishining***

***MALAKA TALABI***

**Toshkent – 2024**



**ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:**

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil «25» 06 dagi 218 - sonli buyrug‘i bilan

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy talimning davlat talim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy talimning davlat talim standarti. Oliy talim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r	bet
1. <b>Umumiy tavsifi</b> .....	4
1.1. Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalari.....	5
2. <b>Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar</b> .....	9
3. <b>Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar</b> .....	13
4. <b>Fanlar katalogining tuzilishi</b> .....	14
Bibliografik ma’lumotlar.....	17
Kelishuv varag‘i.....	18

## **1. Umumiy tasnifi**

60730300 – Qurilish muhandisligi ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo’yicha o’qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo’llanish sohasi.**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo’llanilishi.**

Malaka talabi 60730300 – Qurilish muhandisligi ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur ta’lim yo’nalish bo’yicha malaka talablari, o’quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o’quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o’z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektor, o’quv bo’limi boshlig’i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor– o’qituvchilari; ta’lim yo’nalishining o’quv reja va fan dasturlarini o’zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim tashkilotlariga o’qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

## **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

60730300 – Qurilish muhandisligi bakalavriat ta’lim yo’nalishi – fan va texnika sohasidagi ta’lim yo’nalishi bo’lib, barcha turdagi sanoat va fuqaro binolari, inshootlari turlari, barpo etish texnologiyalari, konstruksiyalari, turlari va ularni zamonaviy axborot texnologiyalar dasturlari yordamida loyihalash va hisoblash, bino va inshootlarni ta’minlash va texnik holatini baholash, sanoat va fuqaro binolari loyihalarini bajarish va tuzilgan loyiha natijalarini amalda qo’llash, bino va inshootlarning texnik ekspluatatsiyasi, turar-joy binolariga texnik xizmat ko’rsatish va ta’minlash, energiya samarali sanoat va fuqaro binolarini loyihalash, neft, tabiiy gaz va gaz kondensatini qazib olish inshootlari loyihalash va hisoblash, neft va gaz kompleksi korxonalari, gaz va gaz kondensat konlarini ishlatish, yer osti gaz

omborlari inshootlari, neft va gaz quduq inshootlarini ta’mirlash va texnik xolatini baholash, inshootlarni ishlatishini amalga oshirish va takomillashtirish, ularni tiklash usullari va vositalari, ulardan foydalanish va texnikaviy xizmat ko’rsatish, qurilish materiallari, buyumlari va konstruktsiyalarini tayyorlashda qo’llaniladigan xom ashyo va materiallar, qurilish materiallari, buyumlari va konstruktsiyalarini ishlab chiqarish texnologiyalari va jihozlaridan foydalanish jarayonlari, energiya samarali va innovatsion qurilish materiallari va buyumlarini ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog‘liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.**

Turar–joy binolari, mehmonxona, yotoqxonalar, kam va ko‘p qavatli turar–joy binolari, jamoat binolari, bog‘chalar, maktablar, akademik-litseylar, professional ta’lim muassasalari, OTM o‘quv binolari, hokimiyat, davlat boshqaruvi binolari, barcha turdagi sanoat korxonalarini binolari, loyiha institutlari, ilmiy-tadqiqot va ilmiy ishlab chiqarish muassasalari ilmiy loyihalari, neft – gazni qayta ishlash sanoati obyektlari, neft va gazni saqlash omborlari, neft, neft maxsulotlarini saqlash inshootlari, yer osti omborlari va yer ustki gaz saqlash obyektlari, kopressor stansiyalari, nasos stansiyalari, neft va gazni qayta ishlash kompleksi, yer osti gaz omborlari korxonalarini, neft va gazni tayyorlash uskunalari, neft va gaz quvurlari texnologik tizimi texnik moslamalar va qurilmalar, ularni yaratish, ishlab chiqarish, montaj – sozlash ishlatish usul va vositalari, qurilish materiallari va buyumlar sifati va xavfsizligi nazorati, energiya samarali va innovatsion qurilish materiallari va buyumlarini ishlab chiqarish jarayonlari.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

*ilmiy–amaliy;*

*loyiha–konstruktorlik;*

*ishlab chiqarish;*

*tashkiliy–boshqaruv;*

*foydalanish va servis xizmatini ko‘rsatish;*

*axborot-tahliliy faoliyat.*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

60730300 – Qurilish muhandisligi ta’lim yo’nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi xamda bakalavr faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quydagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

#### **Ilmiy – amaliy faoliyatida:**

Bino va inshootlar, neft-gazni qayta ishlash sanoati va transport obyektlarini loyihalashtirish va qurish sohasiga tegishli yangi texnik vositalar, tizimlar, texnologiyalar, jarayonlar, qurilmalar, konstruktsiyalar, yangi turdagi qurilish materiallari va konstruktsiyalarini, muhandislik kommunikatsiya tizimlarini

yaratishda va amaliyotga tatbiq etishda, yangi mashinalar va avtomatlashtirilgan tizimlarni sinovdan o‘tkazishda zarur bo‘lgan tashkiliy ishlarda ishtirok etish;

tanlangan faoliyat yo‘nalishiga mos keluvchi ilmiy–texnik axborotlar, ilg‘or mahalliy va xorijiy tajribalarni bilishi;

berilgan uslublar bo‘yicha eksperimentlarni qo‘yish va o‘tkazish, loyihalashni avtomatlashtirishning standartlashtirilgan paketlari asosida matematik modellashtirish usullarini egallagan bo‘lishi;

bino va inshootlar, neft-gazni qayta ishlash sanoati va transport obyektlarini loyihalashtirish va qurish sohasiga tegishli nazariy, amaliy, fundamental, innovatsion va tajribaviy ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirilishida ishtirok etish;

ilmiy–tadqiqot, loyiha institutlari va baholash konsalting xizmati markazlarida axborotni himoyalashga oid mavzularda ilmiy–tadqiqot ishlarini olib borishda ishtirok etish;

axborot xavfsizligiga oid ilmiy to‘plamlar, mahalliy va chet el ilmiy–tadqiqot yutuqlarini o‘rganish;

kasbiy faoliyat obyekti yo‘nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy–tadqiqot loyihalarini o‘rganish;

Respublika va xorijda chop etilgan ilmiy–texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o‘rganish;

zamonaviy qurilish materiallari va buyumlarini ishlab chiqarishga bag‘ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o‘rganish va tizimlashtirish;

internet tarmog‘idan eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘naltirilgan holda qidirib topish va amaliyotga qo‘llash;

ilmiy–tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

bajarilgan ishlar bo‘yicha hisobot tuzish, berilgan uslublar bo‘yicha eksperimentlarni qo‘yish va bajarish usullarini egallash.

#### **Loyiha-konstruktorlik faoliyatida:**

Turar–joy, jamoat va sanoat bino va inshootlari hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati va transport obyektlarini loyihalash va konstruktsiyalash to‘g‘risida tushunchalarga ega bo‘lish;

turar–joy, jamoat va sanoat bino va inshootlari hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati va transport obyektlarini muhandislik tizimlari va jihozlarni loyihalash borasida tasavvurga ega bo‘lish;

turar–joy, jamoat va sanoat bino va inshootlari hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati obyektlarini qurish, ta’mirlash hamda rekonstruktsiya qilish bilan bog‘liq loyihalarini ishlab chiqish;

bino va inshootlar, neft-gazni qayta ishlash sanoati va transport obyektlari konstruksiyalari va uskunalari avtomatlashtirilgan loyihalashning standart vositalaridan foydalangan holda hisoblash va konstruksiyalash;

ichki va tashqi to’siq konstruksiyalarni hisoblash va loyihalash;

bino va inshootlar hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati obyektlarini loyiha ishchi texnik hujjatlarini tayyorlash, yakunlangan loyihaviy–konstruktorlik hamda qurilishni rejalashtirish, tashkil etish ishlarni bajarish loyihalarini ishlab chiqish va ularni rasmiylashtirish;

bino va inshootlar hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati va transport obyektlarini ta’minlaydigan hajmiy–tarxiy va konstruktiv yechimlarini loyihalash, energiya samarador qurilish materiallari va muhandislik qurilmalaridan foydalanish;

xom ashyo va materiallarning tuzilishi, fizik-mexanik va kimyoviy xossalarni aniqlash, xom ashyolarga ishlov berish va mahsulotlarni ishlab chiqarish loyihasini tuzish;

ishlab chiqiladigan loyihalar, loyihaviy konstruktorlik hujjatlarni, topshiriqlar, standartlar, normalar, texnik shartlar va boshqa normativ hujjatlariga muvofiq kelishini ta’minlash;

#### **Ishlab chiqarish faoliyatida:**

Qurilish obyektlarida ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarini bajarishda usta (master), qurilish ishlarini boshqaruvchi (prorab), texnolog, muhandis hamda loyiha tashkilotlarida konstruktor bo’lib ishlash;

turli qurilish obyektlarining ayrim texnologik jarayonlarning hisobiy–texnologik xaritalarini tuzish va qo’llash;

qurilishda qo’llaniladigan materiallar va konstruksiyalarning sifatini nazorat qilish;

turar–joy, jamoat va sanoat bino va inshootlarni hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati va transport obyektlarini barpo etishda qurilish texnologiyasiga rioya qilinishini nazorat qilish;

turar–joy, jamoat va sanoat bino va inshootlarni hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati obyektlarini qurilishida texnik hujjatlarni (ishlarni bajarish grafiklari, yo’riqnomalar, rejalar, smetalar, material va jihozlarga buyurtmalar) tuzish;

qurilish, ta’mir va rekonstruktsiya ishlari amalga oshiriladigan hududlarni qurilishga muhandislik tayyorgarlik ishlarini bajarish;

ilmiy va amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish;

shaharsozlik va kasbiy etika kodekslariga, hamda mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilish;

qurilish materiallaridan foydalanish sohalarida namunaviy texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va ularni amalda qo’llash;

qurilish materiallari va konstruktsiyalaridan foydalanish jarayonlarida texnologik intizomga rioya qilish;

innovatsion texnologiyalarni va yangi qurilish materiallarini qo’llash.

**Tashkiliy–boshqaruv faoliyatida:**

Ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tadbiq qilish;

ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo’lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

turar–joy, jamoat va sanoat bino va inshootlari hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati va transport obyektlari qurilishi sohasida ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

qurilish sohasidagi jarayonlarni tashkil etish va boshqarish;

turar–joy, jamoat va sanoat bino va inshootlari hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati obyektlari qurilishida zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog’liq bo’lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullarini va mexanizmlarini ishlab chiqish;

turar–joy, jamoat va sanoat bino va inshootlari hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati obyektlarini qurish, qayta qurish, rekonstruktsiya qilishni amalga oshirish ishlari sifatini boshqarish bo’yicha tadbirlarni ishlab chiqish hamda tatbiq qilish;

atrof–muhitni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

muhandislik va konstruktorlik yechimlarini amaliyotga tadbiq qilish;

ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarishda texnik va mualliflik nazorati, shuningdek davlat arxitektura qurilish nazoratini amalga oshirish;

fikrlar har xil bo’lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

birlamchi konstruktorlik, texnologik yoki ishlab chiqarish zveno va brigadalar ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

qurilish ishlari rejasini tuzish va nazorat qilish, zarur bo’lgan resurslarni rejalashtirish;

ishlab chiqarish jarayonlarini va mehnat xavfsizligini nazorat qilish tizimi talablariga mosligini monitoring qilish;

qurilish materiallari, buyumlari va konstruktsiyalarini foydalanishga topshirish qoidalarini bilish;

qurilish materiallari, buyumlari va konstruktsiyalarini buyurtmachining talabiga binoan sinovlardan o’tkazish.

**Foydalanish va servis xizmatini ko’rsatish faoliyatida:**

Turar–joy, jamoat va sanoat bino va inshootlarni hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati obyektlaridan foydalanish jarayonida xizmatlar ko’rsatish;



turar–joy, jamoat va sanoat bino va inshootlarni hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati va transport obyektlari konstruktsiyalari, muhandislik kommunikatsiya tizimlaridan foydalanish, ta’mirlesh va ularga texnik xizmat ko’rsatishni tashkil etish;

turar–joy, jamoat va sanoat bino va inshootlarni hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati obyektlarini qurish–ta’mirlesh ishlarini tashkil etish bo’yicha xizmat ko’rsatish;

turar–joy, jamoat va sanoat bino va inshootlarni hamda neft-gazni qayta ishlash sanoati obyektlari konstruktsiyalar va asbob–uskunalarning texnik holatini tekshirish va qoldiq resursini baholash usullarini aniqlash.

**Axborot-tahliliy faoliyatida:**

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo’yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

**2. Kasbiy kompetensiyalariga qo’yiladigan talablar.**

dunyoqarash bilan bog’liq tizimli bilim va tasavvurga ega bo’lishi;

kasbiy faoliyatda tabiiy fanlarning asosiy qonunlaridan foydalana olishi, matematik tahlil va modellashtirish usullarini qo’llay olishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish va kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olishi;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko’rib chiqish, o’z-o’zini rivojlantirish, malaka oshirish va o’z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakterini o’zgartirishga qodir bo’lishi;

axborot yig’ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo’lishi, o’z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

bakalavriat yo’nalishi bo’yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo’lish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o’z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

me’yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko’nikmalariga ega bo’lish;

tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo’llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko’nikmalariga ega bo’lish;

**Bino va inshootlar qurilishi faoliyat turi bo’yicha**

arxitektura va qurilish sohasidagi jarayonlarni tashkil etish va boshqarish;

bino va inshootlarni qurish, ta’mirlesh hamda rekonstruktsiya qilish bilan bog’liq loyihalarini ishlab chiqish kompetensiyasiga ega bo’lish;

turli sohalarga oid bino va inshootlarni konstruktiv yechimlarini ishlab chiqish, konstruktsiyalarini tanlash, loyihalash va me’yoriy talablar asosida hisoblash ishlarini bajarish kompetensiyasiga ega bo’lish;

bino va inshootlarni loyihalash jarayonida ularning zilzilabardoshligi, ishonchliligi, umirboqiyiligini ta’minlash yuzasidan loyiha-konstruktorlik vazifalarni amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

bino va inshootlarni loyihaviy va ishchi texnik hujjatlarini tayyorlash, yakunlangan loyihaviy ishlarini rasmiylashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

turli qurilish obyektlarining texnologik jarayonlarning hisobiy–texnologik xaritalarini tuzish va qo‘llashni bilish;

qurilishda qo‘llaniladigan materiallar va konstruktsiyalarning sifatini hamda qurilish texnologiyasiga rioya qilinishini nazorat qilish, qurilishni rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish kompetensiyasiga ega bo‘lish;

turar–joy, jamoat va sanoat binolari qurilishida texnik hujjatlarni (ishlarni bajarish grafiklari, yo‘riqnomalar, rejalar, smetalar, material va jihozlarga buyurtmalar) tuzishni bilish;

qurilish, ta’mirlesh va rekonstruktsiya ishlari amalga oshiriladigan hududlarni qurilishga tayyorlash, qurilish obyektlarini loyihalash, qurish, rekonstruktsiya qilish va ta’mirlesh ishlarini amalga oshirish kompetensiyasiga ega bo‘lish;

kasbiy faoliyatida axborot texnologiyalar, avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalaridan foydalanishni bilish va muhitlarini rivojlantirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

### **Neft gazni qayta ishlash sanoati obektlari faoliyat turi bo‘yicha**

neft-gazni qayta ishlash sanoati obyektlarida ishlatiladigan mexanik prinsiplar va qurilishidagi eng so‘nggi mexanik texnologiyalarni qo‘llash haqida tushunchaga ega bo‘lish;

neft-gazni qayta ishlash inshootlari maydoni yoki hududining muhandis-geologik sharoitini hisobga olish, loyihalash, qurilishda va foydalanishda muhandis-geologik ma’lumotlarni tahlil qila olishi;

qurilish materiallarining fizikaviy, mexanikaviy va kimyoviy xususiyatlari, ularning ishlab chiqarish texnologiyalari va ularni qo‘llashni bilish;

neft, gaz kondensati va gazni qayta ishlash apparatlari va qurilmalarida sodir bo‘ladigan kimyoviy va fizikaviy jarayonlarning material va issiqlik balanslarini tuzishni, texnologik uskunalarni ekspluatatsiya qilishda va yaratishda ilmiy - tadqiqotlarda, texnologiyani mujassamlash va olingan ma’lumotlar asosida hisobotlar tuzishni bilish;

neft-gaz obyektlari qurilishida yuqori aniqlikdagi o‘lchovlar va xaritalar bilan ishlash, inshootlarning joylashuvini nazorat qilish va ularning xavfsizligini ta’minlash uchun geodeziya usullari, GPS, total stansiyalar va lazer skanerlashni qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

neft-gazni qayta ishlash sanoati obyektlarini konstruktiv yechimlarini ishlab chiqish, konstruksiyalarini tanlash, loyihalash va me’yoriy talablar asosida hisoblash ishlarini bajarish kompetensiyasiga ega bo’lish;

neft-gazni qayta ishlash sanoati obyektlarini loyihalash jarayonida ularning zilzilabardoshligi, ishonchliligi, umrboqiyiligini ta’minlash yuzasidan loyiha-konstruktorlik vazifalarni amalga oshirish ko’nikmalariga ega bo’lish;

neft-gazni qayta ishlash sanoati obyektlarini loyihaviy va ishchi texnik hujjatlarini tayyorlash, yakunlangan loyihaviy ishlarini rasmiylashtirish ko’nikmalariga ega bo’lish;

turli neft-gazni qayta ishlash sanoati obyektlarining texnologik jarayonlarning hisobiy–texnologik xaritalarini tuzish va qo’llashni bilish;

neft-gazni qayta ishlash sanoati obyektlari qurilishida qo’llaniladigan materiallar va konstruksiyalarning sifatini hamda qurilish texnologiyasiga rioya qilinishini nazorat qilish, qurilishni rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish kompetensiyasiga ega bo’lish;

qurilish, ta’mirlash va rekonstruktsiya ishlari amalga oshiriladigan hududlarni qurilishga tayyorlash, neft-gaz obyektlarini loyihalash, qurish, rekonstruktsiya qilish va ta’mirlash ishlarini amalga oshirish kompetensiyasiga ega bo’lish;

nasos va kompressor stansiyalarini loyihalashtirish va qurish texnologik jarayonlarini intensivlashtirish yo’llari, jixozlarni asosiy turlari, ishlab chiqarish unumdorligi, turli xil yoqilg’ilar va moylar ishlab chiqarish uchun kerak bo’lgan xom-ashyo va materiallari to’g’risidagi bilimlarga ega bo’lish;

gazni saqlash inshootlarining tasnifi, loyihalashdagi asosiy talablar, texnologik qurilmalarga xizmat ko’rsatish va ta’mirlash, inshootdagi yong’in xavfsizligi to’g’risidagi bilimlarga ega bo’lish;

kasbiy faoliyatida axborot texnologiyalar, avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalaridan foydalanishni bilish va muhitlarini rivojlantirish ko’nikmalariga ega bo’lish.

### **Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish faoliyat turi bo’yicha**

me’yoriy huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatda foydalanish ko’nikmalariga ega bo’lish;

qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish sohasidagi jarayonlarni tashkil etish va boshqarish kompetensiyalariga ega bo’lish;

qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish korxonalarida texnolog, muhandis bo’lib ishlash, texnologik jarayonlarini bajarish;

ishlab chiqarilgan qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarining sifatini nazorat qilish;

qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish texnologiyasiga rioya qilinishini nazorat qilish bo’yicha ko’nikmalarga ega bo’lish;

qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish texnik hujjatlarni (ishlarni bajarish grafiklari, yo‘riqnomalar, rejalar, xom ashyo material va jihozlarga buyurtmalar) tuzish;

kasbiy faoliyatida axborot texnologiyalar, avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalaridan foydalanishni bilish va muhitlarini rivojlantirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

### **Bino va inshootlar qurilishi (transport binolari) faoliyat turi bo‘yicha**

transport bino va inshootlarining konstruktiv elementlari va ularning hisoblash sxemasi, ichki kuchlarni aniqlash, kesish usuli, kuchlanish va uning turlari, cho‘zilish va siqilish, Guk qonuni, cho‘zilish va siqilishga ishlaydigan sterjenlarni mustahkamlikka hisoblash, namunalarni sinash orqali mexanik xususiyatlarini aniqlashni hamda ularning kinematik analizi, ta’sir chiziqlar nazariyasi, statik noaniq sistemalar va ularni hisoblash usullari hamda uzluksiz to‘sinlar, statik noaniq sterjenli sistemalarni hisoblash usullari, inshootlarni harakatlanuvchi yuklar ta’siriga hisoblash usullarini bilishi;

qurilish materiallarini tadqiq qilishning zamonaviy usullari, kompozitsion qurilish materiallarining tarkibi, nano, mikro va makrostrukturasi, xossalari va ularni tayyorlash, resurs va energiya tejankor, ekologik havfsiz texnologiyalar haqida bilishi;

transport binolari va inshootlarini loyihalash jarayonida ularning zilzilabardoshligi, ishonchliligi, umrboqiyligini ta’minlash yuzasidan loyiha-konstruktorlik vazifalarni amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

transport binolarini loyihalash, qurish, ekspluatatsiyasini tashkil etish va boshqarish sohasida bajariladigan ilmiy-tekshirish ishlarini bajarishda qatnashish;

transport binolarini suv ta’minoti, oqova suv tarmoqlari va jihozlari, sovitish, shamollatish tizimlari haqida tasavvurga ega bo‘lishi;

transport sohasidagi turar-joy, jamoat va sanoat bino va inshootlarini xalqaro tajribalarga muvofiq loyihalashni;

qurilish ob’ektlarida muhandis, usta (master), ish bajaruvchi (prorab) bo‘lib ishlash, qurilish ishlab chiqarishining texnologik jarayonlarini bajarish va maromiga yetkazish;

transport binolarini barpo etish qurilishida qurilishni tashkil etish va rejalashtirishni o‘rganish, ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini xalqaro tajribalarga muvofiq ishlab chiqish va tadbiq qilish;

qurilishda metrologiya, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va sifat nazoratining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ilmiy-amaliy ahamiyati, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va uni eksportini ta’minlash uchun xalqaro standart talablari;

**Yo’l bo’yi infratuzilmalari muhandisligi faoliyat turi bo’yicha**

yo’l bo’yi infratuzilma bino va inshootlarining arxitektura va qurilish sohasidagi jarayonlarini tashkil etish va boshqarish;

yo’l bo’yi infratuzilma bino va inshootlarni joylashtirishni rejalashtirish, loyihalash va qurish, ta’mirlesh hamda rekonstruksiya qilish bilan bog’liq loyihalarini ishlab chiqish;

yo’l bo’yida joylashgan turli yo’l harakatiga xizmat qiluvchi obyektlarini qurish texnologik jarayonlarining hisobiy–texnologik xaritalarini tuzish;

yo’l bo’yi infratuzilma bino va inshootlarni qurilishida qo’llaniladigan materiallar va konstruksiyalarning sifatini nazorat qilish, hamda qurilishni rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish;

yo’l bo’yi infratuzilmalarini bino va inshootlarini loyihaviy va ishchi texnik hujjatlarini tayyorlash, yakunlangan loyihaviy ishlarini rasmiylashtirish;

yo’l bo’yi infratuzilmalarini qurilishida texnologiyaga rioya qilinishini nazorat qilish;

yo’l bo’yi infratuzilmalarini qurilishida texnik hujjatlarni (ishlarni bajarish kalendar va tarmoq grafiklari, yo’riqnomalar, rejalar, smetalar, material va jihozlariga buyurtmalar) tuzish;

yo’l bo’yi infratuzilmalarini qurish, ta’mirlesh va rekonstruksiya ishlari amalga oshiriladigan hududlarni qurilishga tayyorlash;

ilmiy va amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish;

yo’l bo’yi infratuzilmalarini qurilishida atrof–muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

yo’l bo’yi infratuzilmalari ekspluatatsiyasini tashkil etish, transport oqimiga xizmat ko’rsatish darajasini oshirish, yo’l bo’yi infratuzilma ob’ektlari hududida harakatni tashkil etish va xavfsizlikni ta’minlash.

**3. Amaliyotlarga qo’yiladigan talablar.**

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg’unlashtirish, tegishli amaliy ko’nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta’lim yo’nalishi bo’yicha quyidagi amaliyotlar o’tkaziladi:

1. Tanishuv amaliyoti
2. Texnologik amaliyot
3. Ishlab chiqarish amaliyoti
4. Bitiruv oldi amaliyoti

## 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O’quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Umumiy majburiy fanlar</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	<b>1-2</b>
1.01	DIN1104	Dinshunoslik	120	4	1
1.02	O’EYaT1104	O’zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.03	QAT1104	Qurilishda axborot texnologiyalari	120	4	1
1.04	FIZ11108	Fizika	240	8	1,2
1.05	XT1110	Xorijiy til	300	10	1,2
1.06	OM1110	Oliy matematika	300	10	1,2
1.07	ChGGMG104	Chizma geometriya va muhandislik grafikasi	120	4	1
1.08	JTS1204	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	2
1.09	O’RT1204	O’zbek (rus) tili	120	4	2
1.10	QKIM1204	Qurilish kimyosi	120	4	2
1.11	FAL1204	Falsafa	120	4	2
<b>Bino va inshootlar qurilishi faoliyat turi bo’yicha majburiy fanlar</b>					
1.12	QM1312	Qurilish mexanikasi	360	12	3,4,5
1.13	IGEOL1304	Muhandislik geologiyasi	120	4	3
1.14	QMB1308	Qurilish materiallari va buyumlari	240	8	3,4
1.15	SFBA0310	Sanoat va fuqaro binolari arxitekturasi	420	14	3,4,5
1.16	IGEOD1404	Muhandislik geodeziyasi	120	4	4
1.17	GMZvaP1404	Gruntlar mexanikasi, zamin va poydevorlar	120	4	4
1.18	MK1410	Metall konstruksiyalari	300	10	4,5
1.19	KJT1504	Qurilish jarayonlari texnologiyasi	120	4	5
1.20	BIBET1504	Bino va inshootlarni barpo etish texnologiyasi	120	4	5
1.21	TBK1510	Temirbeton va tosh konstruksiyalari	300	10	5,7
1.22	BITXB1704	Bino va inshootlarning texnik holatini baholash	120	4	7
1.23	QTER1710	Qurilishni tashkil etish va rejalashtirish	240	8	7,8
1.24	QKLKT1708	Qurilish konstruksiyalarini loyihalashda kompyuter texnologiyalari	240	8	7,8
2.00		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>1530</b>	<b>51</b>	<b>3,4,5,7,8</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1530	51	3,4,5,7,8
<b>Kvalifikatsiya</b>		<b>Muhandis-quruvchi</b>			
<b>Neft gazni qayta ishlash sanoati obyektlari faoliyat turi bo’yicha majburiy fanlar</b>					
1.12	QM1312	Qurilish mexanikasi	360	12	3,4,5
1.13	IGEOL1304	Muhandislik geologiyasi	120	4	3
1.14	QMB1304	Qurilish materiallari va buyumlari	120	4	3
1.15	UEL1304	Umumiy elektrotexnika	120	4	3
1.16	NGQISTJ1308	Neft va gazni qayta ishlash sanoati texnologik jihozlari	240	8	3,4
1.17	IGEOD1404	Muhandislik geodeziyasi	120	4	4
1.18	SBA1404	Sanoat binolari arxitekturasi	120	4	4
1.19	MK1410	Metall konstruksiyalari	300	10	4,5
1.20	GMZvaP1504	Gruntlar mexanikasi, zamin va poydevorlar	120	4	5

1.21	TBK1510	Temirbeton va tosh konstruksiyalari	300	10	5,7
1.22	NKSLQ1708	Nasos va kompressor stansiyalarini loyihalashtirish va qurish	240	8	7,8
1.23	NGQISOLQ1710	Neft, gazni qayta ishlash sanoati obektlarini loyihalashtirish va qurish	300	10	7,8
1.24	GSOLQ1708	Gazlarni saqlash obyektlarini loyihalashtirish va qurish	240	8	7,8
1.25	BITXB1804	Bino va inshootlarning texnik holatini baholash	120	4	8
2.00		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>1530</b>	<b>51</b>	<b>3,4,5,7,8</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1530	51	3,4,5,7,8
Kvalifikatsiya		Muhandis-quruvchi			
<b>Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.12	QM1312	Qurilish mexanikasi	240	8	3,4
1.13	BIA1304	Bino va inshootlar arxitekturasi	120	4	3
1.14	QMB1308	Qurilish materiallari va buyumlari	240	8	3,4
1.15	MSS1306	Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish	180	6	3
1.16	ITU1310	Issiqlik texnik uskunalari	240	8	4,5
1.17	BTT1308	Beton to'ldiruvchilar texnologiyasi	300	10	4,5
1.18	BM1410	Bog'lovchi moddalar	300	10	4,5
1.19	QK1504	Qurilish konstruksiyalari	120	4	4
1.20	KMZT 1504	Kompozitsion materiallarning zamonaviy texnologiyalari	120	4	5
1.21	QITU1704	Qurilish industriyasining texnologik uskunalari	120	4	7
1.22	PIIM1704	Pardozlash va issiqlik izolyasiya materiallari	120	4	7
1.23	BTBT1512	Beton va temir-beton texnologiyasi	360	12	5,7,8
1.24	KTQK1708	Korxonalarda tayyorlangan qurilish konstruksiyalari	240	8	7,8
1.25	QM1504	Qurilishda menejment	120	4	5
2.00		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>1530</b>	<b>51</b>	<b>3,4,5,7,8</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1530	51	3,4,5,7,8
Kvalifikatsiya		Muhandis-texnolog			
<b>Bino va inshootlar qurilishi (transport binolari) faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.12	NM1306	Nazariy mexanika	180	6	3
1.13	MatQSH1308	Materiallar qarshiligi	240	8	3,4
1.14	MGEOD 1308	Muhandislik geodeziyasi	240	8	3,4
1.15	QM1308	Qurilish materiallari	240	8	3,4
1.16	GMZvaP1408	Gruntlar mexanikasi, zamin va poydevorlar	240	8	4,5
1.17	QM1508	Qurilish mexanikasi	240	8	5,6
1.18	FBA1408	Fuqaro binolari arxitekturasi	240	8	4,5
1.19	QJTBIBE1510	Qurilish jarayonlari texnologiyasi, bino va inshootlarni barpo etish (zamonaviy qurilish mashinalari va mexanizmlari)	300	10	5,6
1.20	TBTK1510	Temirbeton va tosh konstruksiyalari	300	10	5,6
1.21	TSBA1604	Transportdagi sanoat binolari arxitekturasi	120	4	6

1.22	TBZ1804	Transport binolarini zilzilabardoshligi	120	4	8
1.23	MK1608	Metall konstruksiyalari	240	8	6,8
1.24	QTEvaR1804	Qurilishni tashkil etish va rejalashtirish	120	4	8
2.00		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>1530</b>	<b>51</b>	<b>3,4,5,7,8</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1530	51	3,4,5,7,8
Kvalifikatsiya		Muhandis-quruvchi			
<b>Yo'l bo'yi infratuzilmalari muhandisligi faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.12	QDM1304	Qidiruv muhandisligi	120	4	3
1.13	GM13410	Geotexnika muhandisligi	300	10	3,4
1.14	QM13408	Qurilish materiallari	240	8	3,4
1.15	QKSD14508	Qurilish konstruksiyalarining statikasi va dinamikasi	240	8	4,5
1.16	YIRL14510	Yo'l bo'yi infratuzilmalarini rejalashtirish va loyihalash	300	10	4,5
1.17	YBIA1504	Yo'l bo'yi infratuzilmalari arxitekturasi	120	4	5
1.18	YE1504	Yo'l ekologiyasi	120	4	5
1.19	QKL15708	Qurilish konstruksiyalarini loyihalash	240	8	5,7
1.20	YIAL(CAD) 15708	Yo'l bo'yi infratuzilmalarini avtomatlashtirilgan loyihalash (CAD)	240	8	5,7
1.21	QMS1704	Qurilishda metrologiya va standartlashtirish	120	4	7
1.22	AYM1704	Avtomobil yo'llari muhandisligi	120	4	7
1.23	HFX1704	Hayot faoliyati xavfsizligi	120	4	7
1.24	KIM1706	Ko'priqli inshootlar muhandisligi	180	6	7
1.25	YIM17808	Yo'l bo'yi infratuzilmalari muhandisligi	240	8	7,8
1.26	YIMSI1804	Yo'l bo'yi infratuzilmalari muhandisligida smeta ishi	120	4	8
2.00		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>1530</b>	<b>51</b>	<b>3,4,5,7,8</b>
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	1530	51	3,4,5,7,8
Kvalifikatsiya		Muhandis-quruvchi (yo'l infratuzilmalari bo'yicha)			
		<b>Jami:</b>	<b>6150</b>	<b>205</b>	
		Malakaviy amaliyot*	<b>900</b>	<b>30</b>	<b>6,7,8</b>
		Bitiruv malakaviy ishini tayyorlash va himoya qilish	<b>150</b>	<b>5</b>	<b>8</b>
		<b>Jami:</b>	<b>1050</b>	<b>35</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	



## Bibliografik ma’lumotlar

UDK 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so‘zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta’lim yo’nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o‘quv reja va fan dasturi, profil, o‘qib o‘rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriat o‘quv jarayoni, mustaqil ta’lim, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o‘quv fanlar bloki, ta’lim jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, bino, inshoot, loyiha, loyihalash, avtomatlashtirilgan loyihalash, issiqlik himoyasi, konstruktsiya, hisoblash, texnik–iqtisodiy ko‘rsatkichlar, konstruktiv yechim, konstruktiv sistema, qurilish sistemasi, qurilishni ishlab chiqarish, qurilish materiallari, turar–joy binolari, yo‘l bo‘yi infratuzilmalari, hajmiy–tarxiy, temirbeton konstruktsiyalar, metall, hisobiy yuklar, deformatsiya, birikmalar, metrologiya, standartlashtirish, sanoat binolari, suv ta’minoti, kanalizatsiya, shamollatish, zamin, poydevor, grunt, qurilishni tashkil qilish va rejalash jarayoni.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlar iste’molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:



Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Rektor  B. Tulaganov

202\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_

M.O’:

KELISHILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasi

Boshqaruv raisi v.v.b. 

B. Bobokulov

202\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_

M.O’:

O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi

vazir v.v.b. 

Sh. Xidoyatov

202\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_

M.O’:

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlar iste’molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti



Rektor B.Tulaganov

2024 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O’ \_\_\_\_\_

KELISHILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi



Direktor M.Boltabayev

2024 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O’ \_\_\_\_\_

Toshkent davlat transport universiteti



Rektor O.Abduraxmonov

2024 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O’ \_\_\_\_\_

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat  
texnika universiteti



Rektor S. Turabdjano


2024 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O’ \_\_\_\_\_

“O‘ZLITINEFTGAZ” AJ

Boshqaru

raisi birinchi o’rinbosari L. Ismailov



2024 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O’ \_\_\_\_\_

“O‘zog‘irsanoatloyiha” AJ


Direktor B. Xazratqulov

2024 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O’ \_\_\_\_\_

“TREST 12” AJ

v.y.b bosh direktor R.Zakirov



2024 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O’ \_\_\_\_\_